

KICHIK MAKTAB YOSH DAVRIDA XOTIRANI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK USULLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti, psixologiya yo‘nalishi,
101-guruh talabasi Quziboyeva Marjona Shokirjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti, psixologiya yo‘nalishi,
101-guruh talabasi Maxammadjonova Maftunaxon Keldibek qizi
E-mail: foziljonkhtamirzaev@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410428>

Annotatsiya: Maqola kichik maktab yoshidagi bolalarda xotirani rivojlantirishning ijtimoiy psixologik usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar asosida, bolalar xotirasining ijtimoiy muhit, o‘qituvchi va ota-ona ta’siri, hamda guruh faoliyati orqali shakllanishi tahlil qilinadi. Ushbu maqola kichik yoshdagi bolalarda samarali xotira mashqlari, o‘yinlar va interaktiv metodlar orqali xotirani mustahkamlash yo‘llarini ko‘rsatadi. Shuningdek, Vigotskiy, Piaget, Bruner va boshqa psixolog olimlarning nazariyalari asosida amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: xotira rivojlanishi, ijtimoiy psixologik usullar, maktab yoshidagi bolalar, interaktiv metodlar, pedagogik ta’lim.

Аннотация: Статья посвящена изучению социально-психологических методов развития памяти у детей младшего школьного возраста. На основе современных педагогических и психологических исследований анализируется формирование памяти детей под влиянием социальной среды, учителей, родителей и групповой деятельности. В статье демонстрируются эффективные способы укрепления памяти у детей младшего возраста через упражнения, игры и интерактивные методы. Практические рекомендации даны на основе теорий Выготского, Пиаже, Брунера и других психологов.

Ключевые слова: развитие памяти, социально-психологические методы, дети младшего школьного возраста, интерактивные методы, педагогическое образование.

Annotation: This article is dedicated to studying the socio-psychological methods of memory development in primary school children. Based on modern pedagogical and psychological research, the formation of children’s memory under the influence of social environment, teachers, parents, and group activities is analyzed. The article demonstrates effective ways to enhance memory in young children through exercises, games, and interactive methods. Practical recommendations are provided based on the theories of Vygotsky, Piaget, Bruner, and other psychological scholars.

Keywords: memory development, socio-psychological methods, primary school children, interactive methods, pedagogical education.

Kirish

Kichik maktab yoshidagi bolalarda xotira rivojlanishi ularning umumiy intellektual va ijtimoiy rivojlanishining muhim qismi hisoblanadi. Psixolog olimlar, jumladan, L.S.Vigotskiy, J.Piaget va J.Bruner, bolalarning xotirasi ularning ijtimoiy muhit va interaktiv tajribalari orqali shakllanishini ta’kidlagan. Vigotskiy nazariyasi bo‘yicha, bolaning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali yuz beradi, ya’ni murabbiylar, ota-onalar va tengdoshlar bilan muloqot uning xotira qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar ko’rsatadiki, kichik yoshdagi bolalarda xotirani mustahkamlashda o’yinlar, vizual yordamlar va interaktiv mashqlar samarali vosita hisoblanadi. Masalan, D.Brunerning kognitiv o’qitish nazariyasi bolalar xotirasini faol faoliyat va ijtimoiy kontekst orqali rivojlantirishni rag’batlantiradi.

Xotirani rivojlantirishning ijtimoiy psixologik asoslari

1. Ijtimoiy muhit ta’siri. Bolalar xotirasi ularning kundalik muhitiga bog’liq. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bolalar uyda, sinfda va maktabdan tashqari guruh faoliyati davomida yangi ma’lumotlarni eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradi (Gagne, 1985; Bruner, 1966). Masalan, ota-onalar bilan hikoya o’qish yoki matematik o’yinlarni birgalikda o’ynash xotirani kuchaytiradi.

2. Tengdoshlar bilan o’zaro ta’sir. Bolalar o’zaro muloqot orqali ma’lumotni yanada samarali eslab qoladi. Gruppaviy mashqlar, rolli o’yinlar va muammoli vazifalar bolalarni xotirani faol ishlatishga majbur qiladi. Piagetning rivojlanish nazariyasi bo’yicha, bolalar tengdoshlar bilan o’ynash va muammolarni birgalikda hal qilish orqali yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni rivojlantiradi.

3. O’qituvchi va murabbiy roli. O’qituvchilar xotirani rivojlantirishda ijtimoiy psixologik metodlarni qo’llashlari mumkin. Misol uchun, Vygotskiyning “zona najbliyshogo razvitiya” (ZNR) konsepsiyasiga ko’ra, murabbiy bolaning mavjud qobiliyatlari bilan yangi bilimlarni uyg’unlashtirish orqali xotirani samarali shakllantiradi. Shu maqsadda interaktiv darslar, savol-javoblar va vizual yordamlar ishlatiladi.

Kichik maktab yoshida xotira rivojlanishining interaktiv metodlari. “Ta’lim jarayonida xotirani rivojlantirishda interaktiv va konstruktiv metodlar eng samarali hisoblanadi.” [J. Bruner Toward a Theory of Instruction, J. Bruner -AQSH: Belknap Press of Harvard University,1966 – 72-85-bet.]

O’yinlar orqali mashqlar: “Esla va top”, “Rangli kartochkalar”, matematik jumboqlar va hikoya asosida eslab qolish mashqlari.

Vizual yordamlar: Diagramma, rasmlar, grafiklar va rangli belgilar orqali ma’lumotni eslab qolish.

Ritmik va musiqiy mashqlar: Qo’shiq va ritm orqali lug’at va qisqa ma’lumotlarni eslab qolish.

Guruh ishlari va muammoli vazifalar: Bolalar guruhlarda muammolarni yechish orqali xotirani faol ishlatadi.

Repetitsiya va qayta ko’rib chiqish: Ma’lumotni takrorlash, mini-testlar va viktorinalar orqali xotira mustahkamlanadi.

Xulosa

Kichik maktab yoshidagi bolalarda xotira rivojlanishi kompleks ijtimoiy psixologik jarayon hisoblanadi. Bolaning xotirasi ijtimoiy muhit, tengdoshlar bilan o’zaro ta’sir, o’qituvchi va ota-onalar ta’siri orqali shakllanadi. Interaktiv mashqlar, o’yinlar, vizual va ritmik yordamlar, guruh ishlari va repetitsiya xotirani samarali rivojlantirishning asosiy usullari hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, pedagogik yondashuv va ijtimoiy psixologik metodlarning uyg’un qo’llanilishi bolalarda xotira qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. Thought and Language: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: MIT Press, 1978, 200 bet.
2. Piaget J. The Child’s Conception of the World. New York: Basic Books, 1952, 460 bet.
3. Bruner J. Toward a Theory of Instruction. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1966, 190 bet.

4. Gagne R.M. The Conditions of Learning. New York: Holt, Rinehart & Winston, 1985, 350 bet.
5. Anderson, J.R. Cognitive Psychology and Its Implications. New York: W.H. Freeman, 2010, 500 bet
6. Baddeley, A.D. Working Memory and Education. London: Psychology Press, 2007, 150 bet.
7. Luria, A.R. The Working Brain: An Introduction to Neuropsychology. London: Penguin Books, 1973, 432 bet.